NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

IMMANUEL KANT ASARLARIDA AXLOQIY TA'LIMOTLAR

Elmurod Abdullayev Bozarboy o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti
Elektron pochta: abdullayev_elmurod@list.ru
ORCID: 0009-0004-0768-8167

Annotatsiya: *Kant falsafasi jamiyat hayotida inson qadrini yuksaltirish, axloqiy me'yorlarni mustahkamlash, adolatli tartibot yaratish, huquqiy va demokratik davlat qurish, shuningdek, ta'lim va tarbiya orqali taraqqiyotga erishish g'oyalarini tarannum etdi. Uning ishlari falsafa, huquq, siyosatshunoslik, pedagogika va hatto dinshunoslikka ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu tariqa Kant jamiyatda insonparvarlik, adolat va erkinlikni asosiy qadriyat sifatida shakllantirishda muhim o'rin egalladi. Ushbu maqolada faylasuf Kantning axloqiy qarashlari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Kant falsafasi, Germaniyada ijtimoiy hayot axloq, «Amaliy aql tanqidi», klassik nemis adabiyoti.*

НРАВСТВЕННЫЕ УЧЕНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИММАНУИЛА КАНТА

Аннотация: *Философия Канта воспевала идеи возвышения достоинства человека в жизни общества, укрепления нравственных норм, создания справедливого порядка, построения правового и демократического государства, а также достижения прогресса посредством образования и воспитания. Его труды оказали сильное влияние на философию, право, политологию, педагогику и даже религиоведение. Тем самым Кант занял важное место в утверждении гуманизма, справедливости и свободы как основных ценностей общества. В настоящей статье анализируются нравственные взгляды философа.*

Ключевые слова: *философия Канта, общественная жизнь в Германии, нравственность, «Критика практического разума», классическая немецкая литература.*

MORAL TEACHINGS IN THE WORKS OF IMMANUEL KANT

Abstract: *Kant's philosophy advanced the ideas of raising human dignity in the life of society, strengthening moral norms, establishing a just order, building a law-governed and democratic state, and achieving progress through education and upbringing. His works exerted a strong influence on philosophy, law, political science, pedagogy and even religious studies. In this way Kant came to occupy an important place in establishing humanism, justice and freedom as the core values of society. This article analyses the philosopher's moral views.*

Keywords: *Kant's philosophy, social life in Germany, morality, "Critique of Practical Reason", classical German literature.*

Kant davrida Germaniyada ijtimoiy hayot - madaniyat

Gyote va Shillerning asarlari, klassik nemis adabiyoti gullab-yashnadi. Din va siyosat: protestant an'analari hukmron edi, lekin erkin tafakkur va diniy bag'rikenglik g'oyalari kuchaydi.

Immanuel Kantning axloqiy qarashlari va asosiy asarlari

«Sof aql tanqidi» (Kritik der reinen Vernunft, 1781).

Bu asar Kantning eng mashhur falsafiy merosidir.

Unda Kant inson bilish qobiliyatining chegaralarini o'rganadi: inson aqli tajribadan tashqari narsalarni to'liq bilolmaydi, lekin ular haqida o'ylashga majbur bo'ladi.

Asarda axloqiy masalalar bevosita yoritilmagan, lekin keyingi axloqiy nazariyalari uchun poydevor vazifasini bajargan.

«Amaliy aql tanqidi» (Kritik der praktischen Vernunft, 1788).

Kantning axloqiy falsafasi aynan shu asarda to'liq bayon qilingan.

Uning asosiy g'oyasi — «Kategorik imperativ» tushunchasi:

Axloqiy qonun barcha odamlar uchun umumiy va majburiy bo'lishi kerak.

Odam har doim shunday amal qilishi kerakki, uning xatti-harakati hamma uchun umumiy qonunga aylanishi mumkin boʻlsin.

Kant uchun burch (majburiyat) — axloqiy hayotning markaziy kategoriyasi. Odam oʻz istaklari yoki manfaatidan emas, balki burchini ado etish uchun amal qilishi kerak.

3. «Mulohaza qobiliyatini tanqidi» (Kritik der Urteilskraft, 1790).

Bu asarda Kant goʻzallik, san'at va ma'naviyatni axloqiy tamoyillar bilan bogʻlaydi. Goʻzallikni idrok etish ham insonning erkinligi va axloqiy qadrini anglashga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

4. «Axloq metafizikasiga asos» (Grundlegung zur Metaphysik der Sitten, 1785).

Bu asarda Kant axloqiy qonunlarning nazariy asoslarini ishlab chiqadi.

Unga koʻra:

Inson maqsad emas, hech qachon vosita boʻlolmaydi. Har bir insonning sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyatdir.

Haqiqiy axloq — bu manfaat, qoʻrquv yoki shaxsiy foyda uchun emas, balki burchni ado etish uchun qilinadigan xatti-harakatdir.

5. «Abadiy tinchlik» (Zum ewigen Frieden, 1795).

Bu siyosiy-falsafiy risolada Kant xalqaro munosabatlar va insoniyat kelajagi haqida fikr yuritadi.Unga koʻra: abadiy tinchlikni faqat adolatli qonunlar, xalqaro hamkorlik, erkin davlatlar oʻrtasidagi kelishuv orqali ta'minlash mumkin. Asarda urushning ma'nosizligi va insonparvarlik tamoyillarining ustuvor-ligi koʻrsatilgan.

Kantning axloqiy qarashlarining asosiy tamoyillari

1. Burch axloqi – inson oʻz xatti-harakatlarini ichki majburiyat, ya'ni axloqiy qonunga muvofiq bajarishi kerak.

2. Kategorik imperativ – axloqiy qonun umumiy, shartsiz va har kim uchun majburiydir.

3. Erkinlik – haqiqiy axloq faqat erkin shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Erkinlik – axloqiy qonunga boʻysunish bilan uygʻunlashadi.

4. Inson qadr-qimmati – har bir inson oʻz-oʻzicha maqsaddir, uni faqat vosita sifatida ishlatib boʻlmaydi.

5. Universallik – axloqiy tamoyil butun insoniyat uchun teng amal qiladi, u vaqt va makonga bogʻliq emas.

Kant axloqiy qarashlarining jamiyatga ta'siri

Kant axloqiy nazariyasi Gʻarb falsafasida insonga hurmat, inson huquqlari, demokratiya, huquqiy davlat kabi tushunchalarning shakllanishiga kuchli ta'sir koʻrsatdi. Uning gʻoyalari keyinchalik Gegel, Fichte, Shelling falsafalariga, shuningdek, zamonaviy huquqshunoslik va siyosiy nazariyalarga ta'sir etgan[1].

Bugungi kunda ham Kantning «inson hech qachon vosita emas, balki maqsad» degan tamoyili xalqaro huquq, inson huquqlari deklaratsiyalari asosida qoʻllanilmoqda[2].

Immanuel Kantning axloqiy qarashlari va asosiy asarlari

1. «Sof aql tanqidi» (Kritik der reinen Vernunft, 1781); Bu asar Kantning eng mashhur falsafiy merosidir. Unda Kant inson bilish qobiliyatining chegaralarini oʻrganadi: inson aqli tajribadan tashqari narsalarni toʻliq bilolmaydi, lekin ular haqida oʻylashga majbur boʻladi. Asarda axloqiy masalalar bevosita yoritilmagan, lekin keyingi axloqiy nazariyalari uchun poydevor vazifasini bajargan.

2. «Amaliy aql tanqidi» (Kritik der praktischen Vernunft, 1788); Kantning axloqiy falsafasi aynan shu asarda toʻliq bayon qilingan. Uning asosiy gʻoyasi — «Kategorik imperativ» tushunchasi: Axloqiy qonun barcha odamlar uchun umumiy va majburiy boʻlishi kerak. Odam har doim shunday amal qilishi kerakki, uning xatti-harakati hamma uchun umumiy qonunga aylanishi mumkin boʻlsin Kant uchun burch (majburiyat) — axloqiy hayotning markaziy kategoriyasi. Odam oʻz istaklari yoki manfaatidan emas, balki burchini ado etish uchun amal qilishi kerak.

3. «Mulohaza qobiliyatini tanqidi» (Kritik der Urteilskraft, 1790); Bu asarda Kant goʻzallik, san'at va ma'naviyatni axloqiy tamoyillar bilan bogʻlaydi. Goʻzallikni idrok etish ham insonning erkinligi va axloqiy qadrini anglashga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

4. «Axloq metafizikasiga asos» (Grundlegung zur Metaphysik der Sitten, 1785); Bu asarda Kant axloqiy qonunlarning nazariy asoslarini ishlab chiqadi.

Unga koʻra:

Inson maqsad emas, hech qachon vosita boʻlolmaydi. Har bir insonning sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyatdir. Haqiqiy axloq — bu manfaat, qoʻrquv yoki shaxsiy foyda uchun emas, balki burchni ado etish uchun qilinadigan xatti-harakatdir.

[1] I.Kant. "Abadiy tichlik haqida". Toshkent. Ma'naviyat. 2005 y.

[2] A.To'rayev. G'arb falsafasi tarxi. Toshkent. O'zbekiston. 2019 y. B. 2015-2018.

5. «Abadiy tinchlik» (Zum ewigen Frieden, 1795)[3]

Bu siyosiy-falsafiy risolada Kant xalqaro munosabatlar va insoniyat kelajagi haqida fikr yuritadi.

Unga koʻra: abadiy tinchlikni faqat adolatli qonunlar, xalqaro hamkorlik, erkin davlatlar oʻrtasidagi kelishuv orqali taʼminlash mumkin.

Asarda urushning maʼnosizligi va insonparvarlik tamoyillarining ustuvorligi koʻrsatilgan.

Kantning axloqiy qarashlarining asosiy tamoyillari Burch axloqi – inson oʻz xatti-harakatlarini ichki majburiyat, yaʼni axloqiy qonunga muvofiq bajarishi kerak. Kategorik imperativ – axloqiy qonun umumiy, shartsiz va har kim uchun majburiydir.

Erkinlik – haqiqiy axloq faqat erkin shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Erkinlik – axloqiy qonunga boʻysunish bilan uygʻunlashadi. Inson qadr-qimmati – har bir inson oʻz-oʻzicha maqsaddir, uni faqat vosita sifatida ishlatib boʻlmaydi. Universallik – axloqiy tamoyil butun insoniyat uchun teng amal qiladi, u vaqt va makonga bogʻliq emas.

Kant axloqiy qarashlarining jamiyatga taʼsiri haqida aytib oʻtadigan boʻlsak, Kant axloqiy nazariyasi Gʻarb falsafasida insonga hurmat, inson huquqlari, demokratiya, huquqiy davlat kabi tushunchalarning shakllanishiga kuchli taʼsir koʻrsatdi.

Uning gʻoyalari keyinchalik Gegel, Fichte, Shelling falsafalariga, shuningdek, zamonaviy huquqshunoslik va siyosiy nazariyalarga taʼsir etgan.

Bugungi kunda ham Kantning «inson hech qachon vosita emas, balki maqsad» degan tamoyili xalqaro huquq, inson huquqlari deklaratsiyalari asosida qoʻllanilmoqda.

Kant axloqiy hayotni insonning oʻz ongiga, aqliga tayanib tushuntirdi. Axloqiy meʼyorlar diniy buyruqlardan emas, balki insonning ongli qaroridan kelib chiqadi. U «kategoriya imperativi» deb ataladigan qoidani ishlab chiqdi, bu esa axloqiy qarorlar faqat bir shaxs uchun emas, balki butun jamiyat uchun umumiy boʻlishi kerakligini anglatadi. Jamiyatda axloqiylikni mustahkamlash uchun har kim oʻz burchini bajarishi, vazifasini masʼuliyat bilan ado etishi lozim.

Kant axloqiy qarashlarida inson erkinligi, ratsionallik va burchni eng asosiy mezon sifatida belgilaydi. Uning fikricha, har bir inson oʻz hayotida mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega boʻlishi kerak. Bu esa axloqiy qarashlarda avtonomiya va ongli tanlovning ahamiyatini koʻrsatadi. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish, kelajak avlodlarning hayoti uchun sharoit yaratish ham Kant etikasiga muvofiq axloqiy burch hisoblanadi.

Kantning universallik haqidagi gʻoyasi ham juda muhim. Unga koʻra, axloqiy harakat faqat shaxsiy foyda uchun emas, balki umumiy qoida sifatida hamma uchun qoʻllanilishi mumkin boʻlgandagina haqiqiy axloqiy harakat hisoblanadi. Shu sababli, siyosat yoki jamiyatdagi qarorlar nafaqat samarali, balki adolatli boʻlishi ham zarur. Masalan, immigratsiya yoki ijtimoiy tenglikka oid siyosatlar har bir insonning huquq va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Kantning axloqiy nazariyasi zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb boʻlib qolmoqda. Chunki u har qanday siyosiy va ijtimoiy muammoni nafaqat amaliy, balki axloqiy jihatdan ham baholash imkonini beradi. Shuning uchun Kantning qarashlari XXI asr muammolarini hal qilishda ham metodologik asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Tarbiya haqidagi qarashlari.

Kantning nazarida tarbiya insonni hayvoniylikdan insoniylik darajasiga olib chiquvchi asosiy vositadir. U shunday deydi[4]:

«Inson tarbiya tufayli inson boʻladi»[5].

Demak, tarbiya – insonni komillikka yetkazadigan yagona yoʻl. Kant taʼlim va tarbiyani insoniyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin etadi va uni jamiyatning eng masʼuliyatli vazifasi deb biladi.

Kant falsafasida axloqiylik – bu insonning aqlga asoslangan xatti-harakatlari yigʻindisidir. Uning qarashlariga koʻra, har bir inson oʻz burchini ado etgan taqdirdagina haqiqiy erkinlikka erishadi. Shu bilan birga, tarbiya insonni maʼnaviy jihatdan kamolga yetkazuvchi eng muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni taʼkidlash mumkinki, faylasuf taʼlim va maʼrifatni jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida koʻrdi. Uning fikricha, insoniyatni yuksaltirish tarbiya va bilim bilan bogʻliq, chunki insoniyat faqat maʼrifat orqali oʻz imkoniyatlarini toʻliq roʻyobga chiqaradi. Shu bois jamiyatning kelajagi yoshlarning tarbiyasi va ilm olishiga chambarchas bogʻliqdir.

[3] I.Kant. “Maʼrifat nima?” [oʻzbekcha tarjima; T.Toʻlaganov].-Toshkent; Maʼnaviyat, 2004 y.

[4] Immanuel Kant. [Axloq metafizikasi]-Moskva; Mysl, 1994 y.

[5] Immanuel Kant. [Tarbiya haqida]-Moskva; pedagogika, 1980 y.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Kant. “Abadiy tichlik haqida”. Toshkent. Ma’naviyat. 2005 y.
2. A.To‘rayev. G‘arb falsafasi tarxi. Toshkent. O‘zbekiston. 2019 y. B. 2015-2018.
3. I.Kant. “Ma’rifat nima?” [o‘zbekcha tarjima; T.To‘laganov].-Toshkent; Ma’naviyat, 2004 y.
4. Immanuel Kant. [Axloq metafizikasi]-Moskva; Mysl, 1994 y.
5. Immanuel Kant. [Tarbiya haqida]-Moskva; pedagogika, 1980 y.